

## NUTQNING PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA O'RGANILISHI

Shadiyev Feruz Djaxonovich

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi o'qituvchisi

*Annotatsiya. maqolada maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqi muammosining o'ziga xos tomonlarining pedagogik hamda psixologik xususiyatlarni o'rganish, tadqiqot qilish va shu asosda tegishli ilmiy-amaliy taysiyalarni ishlab chiqilgan. Shuningdek har bir maktabgacha tarbiya bolalarida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik psixologik muammolarning o'ziga xos asosiy ko'rinishlarni hamda ta'lif va tarbiya faoliyatini tashkil etish nazorat qilish va boshqarish jarayonida o'quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlar haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: individuallik, kuzatish, suhbat, anketa savol-javob, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, istedod, pedagogik faliyat, kommunikatsiya, adaptatsiya, qobiliyat, yosh davrlar.*

## ИЗУЧЕНИЕ РЕЧИ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЯВЛЕНИЯ

Шадиев Феруз Джакханович

Бухарский государственный университет, Психология и социология преподаватель кафедры

*Аннотация. в статье исследуются, исследуются педагогические и психологические особенности конкретных сторон проблемы речи детей дошкольного возраста и на этой основе разработаны соответствующие научно-практические рекомендации. В нем также рассматриваются специфические основные проявления тех или иных педагогических психологических проблем, которые могут проявляться у каждого дошкольника, а также обстоятельства, при которых организация учебно-воспитательной деятельности может негативно влиять на учебную активность и эффективность в процессе контроля и управления.*

## THE STUDY OF SPEECH AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

Shadiyev Feruz Djakhanovich

Bukhara State University, Psychology and Sociology lecturer of the Department

*Annotation. in the article, the study of pedagogical and psychological characteristics of specific aspects of the problem of speech of children of preschool age, research and, on this basis, the corresponding scientific and practical recommendations are developed. It also talks about the specific main manifestations of certain pedagogical psychological problems that can manifest themselves in every preschool child, as well as situations when the organization of educational and educational activities can negatively affect educational activity and effectiveness in the process of control and management.*

Kirish. Ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzbviy bog'liqidir. Bola jumlarining mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqat shakflari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi.

Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 ta muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mayjud.

Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B.Elkonining ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlarga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginanining ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi.

Nutq madaniyati - bu, avvalo, tarbiyachida bo'lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko'nikma ya nutqiy malakalarni hosil qiladi.

Bu ko'nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufaylar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun esa tarbiyachi adabiy qoidalarini bilish, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va bolalar bilan suhbatlar o'tkazish muhimdir.

Odamlarning o'zaro aloqalarida ularning nutqlari turli ma'nolarda yoki funksiyalarda namoyon bo'ladi.

Nutqning asosiy vazifasi, demak, uning asosiy funksiyasi – odamlarning bir-birlari bilan aloqa qilish vositasini bo'lishdir.

Bu aloqa asosan odamlarning o'z fikrlarini bir-birlariga aytishlaridan iborat bo'ladi. Aloqa jarayonida

fikrlar nutq yordamida shakllanadi, ifodalanadi, aytildi va tushunib olinadi. Og‘zaki yoki yozma nutqda ifodalab berilgan fikrlar shu fikrlarni aytuvchi kishi uchun ham ravshanroq bo‘lib qoladi. Shunday qilib, nutq aloqa jarayonida tafakkur quroli bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga mana shu aloqa jarayonida nutq ifodalash vositasi bo‘lib, biror nima bildirish vositasi bo‘lib, ta’sir o‘tkazish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Nutqda bizning fikrlarimiz bilan birlikda tuyg‘u-hislarimiz ham ifodalanadi. Og‘zaki nutqda hissiyotlarimiz (emosanal kechinmalarimiz) so‘z yordami bilan qilingan tasvirlarda, ohangda, qofiyada, xitob va savollarda, gaplashish vaqtidagi pauzalarda va ayniqsa intonatsiyalardagi na-moyon bo‘ladi. Chunonchi, biz biron kishining ismini ataganimizda, shu kishiga bo‘lgan turli hislarimizni va munosabatlarimizni o‘zimizdagidagi mehrni, g‘azabni, g‘ururni, muhabbatni, hurmatni, nafratni, mensimaslikni va boshqa shu kabilarni atayin yoki beixtiyor namoyon qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, gapiruvchining intonatsiyasida uning holati ham, charchaganligi, umuman hayajoni, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yoki ishonchisizligi va shu kabilarni ifodalanadi.

Lirik she’rlar, ashulalar, romanlar, ariyalar singari nutq formalarida odamlarning asosan xilma-xil xis va tuyg‘ulari ifodalanadi.

Turli hissiyotlar bizning og‘zaki nutqimiz bilan birgalikda, odatda yuz harakatlarimizda va imoshoralarimizda ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Nutqda bizning irodamiz maqsad muddaomiz, istagimiz, niyatimiz, qarorimiz ham, shuningdek, iroda jarayonlarining ayrim sifatlari – qat’iyat va qat’iyatsizlik, dadillik, kishining o‘zini tuta bilishi, kishidagi qunt va boshqa shu kabilarni ham namoyon bo‘ladi.

Odamning nutqida uning fikrlari va xilma-xil ichki holati – emosional kechinmalari va irodasigina ifodalanib qolmasdan, shu bilan birga hamisha biror ob‘yektiv narsa ham bildiriladi.

Nutqida kamchiligi bor bolalar guruuhining pedagogic-psixologik tavsiyi

Nutqida bir xil buzilishi bo‘lgan bolalarni bir guruuhga birlashtirilsa korreksiya ishlarini olib borish qulay bo‘ladi.

Odatda, guruuhlar quyidagi buzilishlarga qarab ajratiladi:

1) fonetik-fonematik buzilishlar (FFB, toyush talaffuz qilishdagi ko‘pgina kamchiliklari bor bolalar bilan: funksional va mexanik dislaliyalar, rinolaliyalar dizartriyaning engil ko‘rinishi);

2) nutqning to‘liq rivojlanmaganligi (NTR, turli darajadagi nutqning rivojlanmaganligi nutqida ko‘pgina leksik-grammatik kamchiliklari bor bolalar bilan: dizartriyaning, alaliyaning, disleksiyaning va aleksiyaning, hamda disgrafianing va agrafianing murakkab ko‘rinishlarida);

3) (rinofonianing, disfonianing, afonianing) kuy-intonasion kamchiliklari va (duduqlanish, iteratsiya, poltern, taxilaliya, bradilaliya bilan) nutqning tempo-ritmik tomonlari.

Nutq buzilishi paydo bo‘lishining sabablari

Homilaning bachadonda rivojlanishi davrida, tug‘ish paytida, hamda bola hayotining birinchi yillarda miyaga turli xil noma‘qul ta’sirlar nutq patologiyasiga olib kelishi mumkin.

Nutq kamchiligining tuzilishi va darjasini ko‘pincha miya shikastlanishining og‘irlik darajasiga va uni oldini olishga bog‘liq bo‘ladi, bu faktorlar esa o‘z navbatida miyaga vaqtning patogen ta’siriga bog‘liq. Embriogenezning ilk davrida asab hujayralari jadallik bilan ajralishi paytida bachadondagi homilaning 3-4-oyligida og‘ir miya shikastlanishi paydo bo‘ladi..

Miyaning rivojlanmaganligi va nutqning og‘ir buzilishlariga olib keluvchi sabablari orasida infeksiyalar va homiladorlik davrida onaning zaharlanishi, toksikozlar, tug‘ish davridagi shikastlanish, asfiksiya, ona va homila qonining rezus-faktor bo‘yicha zidligi (rezus-konflikt) yoki qonning guruuhga aloqadorligi, markaziy asab tizimining kasalligi (neyroinfeksiyalar- meningitlar, ensefalitlar, meningoensefalitlar) va bola hayotining birinchi yillarda miyaning jarohatlanishi tez-tez uchraydiganidir.

Tadqiqotchilar (G.V.Guroves, S.I.Mayevskaya,) motorli alaliyaning kelib chiqishini yangi tug‘ilgan chaqaloqlar asfiksiyasi va tug‘ilish paytida miya bosh suyagi jarohatining ko‘proq sababini oolib berganlar.

Ye.M.Mastyukova o‘z ishlarida ta‘kidlanganidek, nutqni to‘liq rivojlanmaganligining yana bir ko‘rinishi homiladorlik davrida nikotin va alkogolni iste’mol qilish bolaning asab-psixik ya jismonan rivojlanishining buzilishiga ham olib kelishi mumkin. Homilaga alkogolning ta siri oqibatida jismonan va psixik rivojlanish orqada qoladi, vazni kam bolalar tug‘iladi. Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi bu bolalarda harakatni tormozlanishi, jazavaning kuchayishi va aqliy mehnatga layoqatililikning pastligi bilan qo‘silib ketadi.

Shu o‘rinda, bola miyasining nutq zonalariga zarar keltiruvchi ta’sirlar nutq shakllanib bo‘lganidan keyingi davrida ro‘y bersa, afaziya – nutq buzilishi ehtiromi bor.

Nutq rivojlanishining buzilishida tarbiya va atrof-muhitning noma‘qul sharoitlari bilan bog‘liqligi paydo bo‘lishi kutiladi. Nutq shakllanishining jadal davrida psixik deprivatsiya uning rivojlanishini orqaga suradi. Agar bu faktorlarning ta’siri genetik moyillikka yoki qo‘pol bo‘laman syerebral-organik kamchiliklarga mos kelsa, unda nutq rivojlanishining buzilishi turg‘un xarakterga ega bo‘ladi va nutqning to‘liq rivojlanmaganligi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi odatda miyaning rezidual-organik shikastlanishi natijasidir (bu termin bilan ifodalangan holat tugallangan patologik jarayon natijasidir). Nutq rivojlanishining buzilishini asab-psixik kasalliklaridan (epilepsiya, shizofreniya va boshqalar) farqlashni bilish kerak. Intellektual kamchiliklari bor bolalarni nutqida patologiya ifodalangan bolalar bilan solishtirganda asosan markaziy asab tizimining organik shikastlanishi ko‘rinishlari kuzatiladi – minimal miya disfunksiyasi deyiladi.

Nutq buzilishining etiologiyasida alohida o‘rinni perinatal ensefopalatiya egallaydi – bola tug‘ilishi davrida paydo bo‘lgan miyaning shikastlanishi.

Nutq buzilishida markaziy asab tizimining kamchiliklari organik va funksional darajalarning ifodalangan va bartaraf qilinganlariga bo‘ysunishini kuzatish mumkin:

- nutqning lokal nuqsoni (bosh miya po‘stlog‘ining nutq zonalaridagi kamchilik), ikkilamchi bilish doirasining buzilishida;

- uyg'unlashgan psixonutqiy nuqson (kamchiliklar faqatgina nutq zonalarida emas, balki bosh miya po'stlog'ining chakka-gardan-tepa qismalarida), bilish doirasidagi buzilishlar nutq tuzilmasiga ham kiradi.

V.I.Seliverstov bolalar o'z nuqsonlarini belgilash darajasini quyidagicha ajratadi:

1) o'z nuqsonini nolinchi belgilash darajasi. Bolalar o'z nutqlarini to'laqonli emasligidan kamsitilishni anglashmaydi yoki o'z nuqsonlarini hyech ham e'tiborga olishmaydi. Ular tengdoshlari, kattalar, tanishlari va notanish kishilar bilan muloqotga mammunlik bilan kirishadilar.

2) o'rtamiyona daraja. Bolalar nuqsoni tufayli yoqimsiz xavotirga tushadilar, nutq muloqotini ustalik bilan berkitadilar. Shunga qaramasdan, bu bolalar tomonidan o'z nuqsonini anglashi doimiy to'qilmaydi, o'zining to'laqonli emasligidan og'ir hissiyotlari, qachonki har qadami, har harakati nuqsoni orqali baholansa ham.

3) ifodalangan daraja. Bolalar doim o'z nutq nuqsonlarida belgilanganlar, nutqlaridagi omadsizlikka butun faoliyatlarini bog'liqligidan chuqur xavotirlanishadi. Ular uchun betob bo'lish, o'zini xo'rash, g'ayri tabiiy har narsaga shubha bilan qarash, xira o'ylar va nutq oldida ifodalangan qo'rquv xosdir.

Nutqi buzilgan bolalarning hissiyoti-irodali, shaxs doirasida tartibsziliklar faqatgina ularning ish qobiliyatlarini pasayishi yoki yomonlashishiga emas, balki ijtimoiy moslashmagan hodisa va ahloqning buzilishiga olib keladi, bu bolalardagi hissiy-shaxs rivojlanishining xususiyatlarda ajratilgan psixokorreksiya va psixoprofilaktika alohida mazmunga ega bo'ladi.

Kuzatilayotgan nutqi og'ir buzilgan bolalarda shaxsiy nutq axloqini tashkil qilishda atrofdagi odamlar bilan muloqotida salbiy jiddiy qiyinchiliklar ko'rindi. Bu turkumdag'i bolalarda nutqiy va aloqa yo'llarini uddalash o'zaro shartlashish shunga olib keladiki, nutq rivojlanishining bu xususiyatlari hisoblangan lug'at zahirasining kambag'alligi va farqlanishi, fe'l lug'atining etishmasligi, fikr bildirishning o'ziga xosligi yaxlit muloqotni amalga oshirishga halaqit beradi, bu qiyinchiliklar oqibatida muloqotga talab pasayib ketadi, aloqa yo'llarining shakllanmaganligi (dialogli va monlogli nutq), xulqning xususiyatlari: munosabatda manfaatlar bo'lmasligi, muloqot vaziyatida mo'ljalga olishni uddalamasligi, negativizm. (L.G.Solov'yeva).

O.S.Pavlovaning tadqiqotlari natijasida nutqi umumiy rivojlanmagan maktab yoshiga etmagan katta bolalarni nutqiy aloqa yo'llarini quyidagi xususiyatlari aniqlandi: me'yorda gaplashadigan bolalar jamoasida kabi shu turkum bolalar guruhi tuzilishida o'sha qonuniyatlar ishlendi, o'zaro munosabatlarning qulayligi ancha yuqori hisoblanadi, «qabul qilinmaganlar» va «kalohidalar» dan «afzallar» va «qabul qilingan» larning soni ancha yuqori. Shu bilan bir vaqtida bolalar o'zlariga o'rtoq tanlash sababini aytishga qiynaladilar («Bilmayman», «U o'zini yaxshi tutadi», «Men u bilan do'stman, o'ynayman», «Uni tarbiyachi maqtaydi» va b.), ular o'yindagi sheriklariga shaxsiy munosabatlarga qarab emas, balki uni pedagogning bahosiga qarab mo'ljalaydilar.

#### Xulosa

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchrab turadigan ayrim muammolar va ularni barataraf etishning ijtimoiy psixologik mexanizmlarini yangidan tarkib toptirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari balki, ota otalaridan bolalarning nutiqni rivojlanishi bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarga ega bo'ilishlarini talab qiladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. - T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. - B. 68.
2. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. - T.: "Tafakkur", 2019. - B. 107.
3. Zokirova, S. M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe, (8-2 (8)).
4. Shodiyev D. Yangi darsliklarni tekshirish va baholash// Kitob: Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammo, yechimlar. – T.: 2009, b 25-28.
5. Shojalilov A. va boshqalar. 4-sinf o'qish kitobi.-T.: Mehnat o'qituvchisi.2000.
6. Choriyev R. Yangi pedagogik texnologiyalar-ta'lim tarbiya sifat va samaradorligi omili// «Xalq ta'limi», 2004.№4. – B. 25-28.

#### Internet saytlari:

1. [www.LEX.uz](http://www.LEX.uz)
2. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)